

Qumqo'rg'on tumanida sanoat korxonalari faoliyati va yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishildi



Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov Qumqo'rg'on tumanida bo'lib, qator ishlab chiqarish va sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishdi. Shuningdek, hududda amalga oshirilayotgan yangi loyihalar, bo'sh turgan ob'ektlardan samarali foydalanish bo'yicha loyihalar taqdimotlari o'tkazildi.

□ Dastlab, "Surxon parmalash ishlari" Ajning janubiy kaldara strukturasi va neft va gaz quduqlarini qazish ishlari faoliyati bilan tanishildi. Shuningdek, shu yerning o'zida tumanda barpo etilayotgan ko'p qavatli uy-joylar hamda auktsion savdolariga chiqarilgan bo'sh turgan ob'ektlar taqdimot qilindi;

□ "Qumqo'rg'on tuman ta'mirlash mexanika zavodi" MChJning temir beton mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi faoliyati ko'zdan kechirildi va MChJ tomonidan amalga oshirilayotgan to'qimachilik kompleksi, 1 MVt quyosh paneli o'rnatish va betonli sendvich paneldan ko'p qavatli uy-joy qurish loyihalari taqdimot qilindi;

□ "Mexanika" xususiy korxonasining temir mahsulotlarini eritish va qayta ishlash jarayonlari bilan tanishildi;

□ "Ravshan Inroz" xususiy korxonasi tomonidan MDF eshik va mebel mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari, tayyor mahsulotlar va ularning sifati bilan ham tanishildi.

Viloyat rahbari har bir manzilda mutasaddilarga sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirish, ularni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash hamda taqdimot qilingan loyihalarni sifatli amalga oshirish bo'yicha vazifalarni belgilab berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)